
YANGI YIL BAYRAM TADBIRI BOLAJONLARGA QUVONCH BAXSH ETMOQDA

Yangi yil - barcha uchun yoqimli va quvonchli bayramdir. Bu bayramni, ayniqsa, bolajonlar intiqlik bilan kutib, "Yangi yil mo'jizasi"ni orzu qiladi hamda bu ularning hayolida deyarli g'aroyib va sarguzashtlarga boy eng quvnoq bayramlardan biri hisoblanadi.

Ayni yangi yil bayrami arafasida, Yuqoriqishloq mahalla fuqarolar yig'ini hududida faoliyat yuritayotgan "Yosh yetakchilar" Davlat hususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilar uchun bayram tadbiri tashkil etildi.

Bolajonlarga bir olam quvonch ulashish maqsadida ushbu shodiyona kechaga Qorbobo, Qorqiz va sevimli multfilm qahramonlari tashrif buyurdi. Bolajonlar uchun ayniqsa, sevimli ertak qahramonlari bilan birgalikda bo'lib o'tgan Yangi yil bayrami o'zgacha taassurotlarga boy bo'ldi. Tadbirda yangragan jozibali kuy-qo'shiq va raqslar, ertak qahramonlari ishtirokidagi qiziqarli sahna asarlari bolalarga bir olam quvonch ulashdi.

Yangi yil bayrami kechasida bolajonlarga Qorbobo va Qorqiz tomonidan bayram sovg'alari topshirildi.

2022-12-30 18:00:15